

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

3-son (4- jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 3 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Hamroyev Asliddin Umed o'g'li

“GULSHANUL MULUK” (“SHOHLAR GULSHANI”) ASARI – MANG’ITLAR HUKMRONLIGI DAVRI MUARRIXLIGI NAMUNASI 13-18

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna

SIRDARYO VILOYATIDA VETERINARIYA SOHASIGA OID ISLOHOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 19-23

Asadova Dilnoza Innatovna

O’ZBEKISTONDA RAQS SAN’ATI SOHASIDA KADLAR TAYYORLASH MASALASI TARIXI VA BUGUNI 24-28

Ҳайитов Умед Яҳёевич

ЎЗБЕКИСТОН ССР МУВАҚҚАТ ИНҚИЛОБИЙ ҚҮМИТАСИ (МАРКАЗИЙ РЕВКОМ)НИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ВА ФАОЛИЯТИ 29-34

Омонова Сарвиноз Ориф қизи

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ҲОЛАТИ ... 35-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Алимханова Нигора Алимхановна

ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 43-52

Mahmudova Dilafruz Hasanovna

KORPORATIV BOSHQARUVNING AYRIM NAZARIY JIHATLARI 53-60

Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING EKONOMETRIK

MODELLASHTIRISH 61-69

Мехмоналиев Улугбек Эркинжон угули

СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ .70-75

Паязов Мурод Максудович

“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АЖДА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ 76-86

Шадибекова Дилдор Абдурахмановна

ЛОГИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМЫ ЕГО РАЗВИТИЯ 87-92

Malikova Dilrabo, Khudoiberdieva Maftunabonu

INNOVATIVE HR MANAGEMENT: NECESSITY AND METHODS OF APPLICATION 93-99

Мамажонова Одинахон Алишер қизи

КОРХОНАЛАР БОШҚАРУВИДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 100-106

Nozimov Eldor Anvarovich

ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHDA O’ZBEKİSTON VA XORİJIY DAVLATLARNING

O’RNI 107-115

Буранова Жазира Эргаш қизи

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ

ГОСУДАРСТВА 116-120

<i>Худойназаров Фахритдин Хайтевич</i>	
КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛарНИНГ ИҚТисодИЙ АҲАМИЯТИ	121-127
<i>Бахтиёров Бобур Баходир ўғли</i>	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА БАНК ЛИКВИДЛИЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	128-136
<i>Isomtdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna</i>	
О'ЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	137-145
<i>Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li</i>	
OLIY TA'LIM O'QUV JARAYONLARIDA ZAMONAVIY VEB TEХNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI	146-150
<i>Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li</i>	
TIJORAT BANKINING KREDIT SIYOSATI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI	151-159
<i>Saidov Shohruh Mirzo</i>	
SOCIO-ECONOMIC ANALYSIS OF CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	160-169
<i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i>	
IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDAGI JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA UNING O'RNI	170-177
<i>Inomjon Matkarimov</i>	
AGROKIMYO BIOCIMYO XIZMATLARI IJTIMOIY IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING SWOT TAHLILI	178-183
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich</i>	
JAMIyatda ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI	184-189
<i>Masharipova Gularam Kamilovna</i>	
МАHMUD IBN MUHAMMAD IBN UMAR AL-CHAG'MINIYNING «AL-MULAXXAS FI-L-HAY'A» RISOLASINING NUSXALARI VA QOZIZODA RUMIYNING SHARHI	190-198
<i>Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна</i>	
ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО И ИХ РОЛЬ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНО- ЦЕННОСТНЫХ ОСНОВ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЦИВИЛИЗАЦИИ	199-206
<i>Urinov Xushnudjon Abdulomitovich</i>	
TA'LIM VA KASB-HUNAR ISLOHOTLARI GENEZISI: KASBIY FAOLIYAT VA MEHNATGA MUNOSABATNING TARIXIY SHAKLLANISHI	207-220
<i>Азизқулов Ақрам Абдурахмонович</i>	
ШАРҚШУНОС УИЛЬЯМ ЭРСКИН ТАДҚИҚОТЛАРИДА БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИ ТАРИХИННИГ ЁРИТИЛИШИ	221-227
<i>Kenjayev Ulug'bek Muratovich</i>	
BEFARQLIK HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI	228-232
<i>G'aybullayeva Laylo Safarboyevna</i>	
MAHALLADA YOSHLAR SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIY-FALSAFIY RIVOJLANISH MASALALARI	233-238

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i>	
YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TAHDID VA ULARDAN O'ZINI ONGLI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARI	239-245
<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i>	
MA'NAVIY SALOHIYATNING IJTIMOIY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA XUSUSIYATLARI	246-252
<i>Xusanov G'olib Elmurodovich</i>	
O'ZBEK OILALARINING RIVOJLANISHIDA AXLOQIY TAFAKKUR MASALALARI	253-257
<i>Аззамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
МУСУЛЬМАНСКОЕ БОГОСЛОВИЕ, СВЯЩЕННЫЙ КОРАН И ТВОРЧЕСТВО НАВОИ В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ КОМПАРАТИВИСТИКИ	258-265
<i>O'rakov Bobir Baxtiyorovich</i>	
IJTIMOIY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI	266-270
<i>Qunishev Ulug'bek Ulashevich</i>	
NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI AXLOQIY VA ESTETIK OMILLAR	271-275
<i>Турдибоев Бозор Худойбердиевич</i>	
ЦИВИЛИЗАЦИЯЛАР ТАРИХИЙ ЯХЛИТЛИК НАМОЁН БЎЛИШ ШАКЛЛАРИ СИФАТИДА	276-282
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i>	
MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA O'ZLIKNI ANGLASH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	283-287
<i>Azamatova Gulrukha Islom qizi</i>	
SOCIOCULTURAL ASPECTS IN KARL POPPER'S PHILOSOPHY IN THE CONTEXT OF MODERN EDUCATION	288-293
<i>Toшпулатова Ширин Мухиддиновна</i>	
ЭТИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	294-302
<i>Yuldasheva Dilorom Yuldashevna</i>	
SCIENTIFIC ATTITUDE TO CONSCIOUSNESS AND ITS INFLUENCE ON THE FIELD OF EDUCATION	303-307
<i>Bekchanov Xudoybergan O'rinvich, Yusupova Firuza Hajiboy qizi, Yulliyeva Sohiba Shuhrat qizi</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI KATTA GURUH TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOIY VA КОММУНИКАТИВ QOBILYATNING RIVOJLANISHI	308-314
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Ткебучава Ирина Георгиевна</i>	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	315-320
<i>Ikromxonova Firuza Ikromovna, Jazira Nusrultanqizi</i>	
TIPOLOGIK TAHLIL - KOMPOZITSIYA VA JANR (TARIXIY ASARLAR MISOLIDA)	321-327

<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi</i>	
LINGUACULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT “HAPPINESS” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	328-334
<i>Mustafayeva Saodat Burxanovna</i>	
SALIM ASHUR SHE’RLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLER VOSITASIDA VOQELIKNI BADIY TALQIN ETISH	335-340
<i>Abdulxayeva Nodirabegim Ixtiyorjon qizi</i>	
DRAMATIK ASARLARNI TARJIMA QILISHDA LEKSIK-SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK MASALALAR	341-346
<i>Xajiyeva Dilfuza Adambayevna</i>	
FOLKLOR VOSITALARINING ZAMONAVIY ADABIYOTDAGI O’RNI VA O’RGANILISHI	347-351
<i>Jumanova Sevara Xolmurod qizi</i>	
KIYIM KECHAK NOMLARI TILNING BOYISH MANBAI SIFATIDA	352-356
<i>Hojaliyev Ismail Tadjibayevich, Ismailova Sayyora Tolkinovna</i>	
MATN NAZARIYASINING SHAKLLANISHI	357-366
<i>Abdullaev Ulmasbek Khairullayevich</i>	
LITERARY WORKS AS THE MOST IMPORTANT AND WELL-ACCLAIMED COMPONENTS OF THE CULTURAL HERITAGE OF THE NATION	367-370
<i>Maxmudova Fotima Maqsud qizi</i>	
TYPES OF MEDIA TEXT LANGUAGE	371-375
<i>Maxmudova Zuhra Maqsud qizi</i>	
BADIY TARJIMANING TILSHUNOSLIK DAGI AHAMIYATI	376-380
<i>Davronova Zulfiya Boboyevna</i>	
UZBEK- FRENCH RELATIONS AS A BINDING PART OF INTERNATIONAL CULTURAL AND HISTORICAL EXPERIENCE	381-386
<i>Hakimova Dilrabo Yo’ldoshovna</i>	
TERMINOLOGIYA SOHASINING TARIXI VA DOLZARB MUAMMOLARI XUSUSIDA	387-392
<i>Мадрахимов Тулибай Абдукаrimovich</i>	
СЎЗЛАШУВ НУТҚИННИНГ ТИЛ ФУНКЦИОНАЛ ВАРИАНТЛАРИ ОРАСИДА ТУТГАН ЎРНИ	393-395
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ergashev Ikrom Abdurasulovich</i>	
SOLIQ INTIZOMINI BUZHISH BILAN BOG’LIQ HUQUQBUZARLIKLER UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI	396-402
<i>Куатбек Гулнар Куатбековна</i>	
ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ТРАНСПАРЕНТНОСТИ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ВЛАСТИ	403-409
<i>Jurayev Dilmurot Mukhtarovich</i>	
ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ALTERNATIVE RESOLUTION OF DISPUTES ARISING FROM ADMINISTRATIVE AND PUBLIC LEGAL RELATIONS	410-415

Mirakhmedova Fazilat Khokim kizi

CRIMES OF MANUFACTURING AND SELLING PHARMACEUTICALS IN A WAY TO DANGER THE LIVES AND HEALTH OF INDIVIDUALS (Evaluation of Türkiye and Uzbekistan legal system) 416-428

Касимов Нодиржон Содикжонович

ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТЛАРИНИГ УМУМИЙ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ 429-438

Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Есенбаев Джанибек Таирович

ЭКОЛОГИК ТУСДАГИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАН МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 439-445

Джалилов Сардор Шавкатович

ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ВА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ КОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИ 446-453

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Mirzayev Qodir Toirovich

ZAMONAVIY XOR SAN'ATI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 454-458

Васильченко Ольга Анатольевна

ИСТОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ 459-463

Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович

ҮҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ 464-470

Mattiyeva Feruza Begmatdulobovna

TARJIMONLIK MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI 471-477

Jurayev Bobomurod Tojiyevich

ABU ALI IBN SINO QARASHALARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI 478-482

Umurova Ma'rifat Yoshiyevna

XALQ QO'SHIQLARI VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA 483-486

Raxmanova Dildora Abdulkamid qizi

INGLIZ TILIDA AKADEMİK YOZUV TUSHUNCHASI VA UNING TALABALAR ILMIY FAOILIYATIDAGI AHAMIYATI 487-492

Rajabiy Aziz Xasanovich

VOKAL ARTISTI FAOLIYATIDA SAHNA MAHORATINING O'RNI 493-497

Omanov Rashid Sherqobilovich

O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TO'G'RI TASHKIL ETISH 498-501

Салимов Акром Хайитович

БЎЛАЖАК ҮҚИТУВЧИЛАРДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ 502-507

Mamatmurodov Sharofjon Khudoyarovich

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI 508-514

<i>Ли Екатерина Владимировна</i>	
СИНЭРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИЙ И ИННОВАЦИОННОЙ	
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	515-523
<i>Ахмедова Нафиса Исаходжаева, Азаматов Абдулло Исахўжаса ўғли, Лутфуллина Румия</i>	
<i>Анваровна</i>	
ЁШ ТЕННИСЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА	
ХАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	524-533
<i>Очилова Мехрибон Суратовна, Хамроева Феруза Асроровна</i>	
АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ИХ	
КЛАССИФИКАЦИЯ	534-541
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT VA UNING ASOSIY FUNKSIYALARI	542-547
<i>Sharipov Habibullo Abduqahhorovich</i>	
TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA	
AHAMİYATI	548-552
<i>Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna</i>	
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IT SAVODXONLIGINI	
OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	553-560
<i>Xakimova Gulshan Abdusalilovna</i>	
JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI YOSH BOLALARNI SIFATLARINI	
TARBIYALASH	561-565
<i>Nazarov Rustam Irkinovich</i>	
TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN HIGHER	
TECHNICAL EDUCATION FIELDS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE)	566-570
<i>Muqimova Fotima Abduqaxor qizi, Muqimova Zuxra Abduqahor qizi</i>	
CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING GRAFIK SAVODXONLIGINI	
RIVOJLANTIRISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISHNING	
AFZALLIKLARI	571-576
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna, Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH	
VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MODELI	577-585
<i>Usmonova Matluba Nosirovna</i>	
O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH	
METODIKASINING KREATIV PEDAGOGIK YONDASHUVI	586-590
<i>Ustaev Abdurazzoq Qurbanovich</i>	
MILLIY KURASH SPORT TURINING FUNKSIYALARI VA MAQSADGA ERISHISHDAGI	
VOSITALARI	591-596
<i>Shoimqulova Nigina Xolmurodovna, Yadigarova Sitora Bahromovna</i>	
ADDRESSING CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: A	
SCHOLARLY EXAMINATION	597-603
<i>Yeshanov Marat Urazaliyevich</i>	
INGLIZ TILINI O'QITISHDA BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV	
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PRAGMATIKANING AHAMIYATI	
LANGUAGE)	604-616

<i>Tursunova Shahnoza Bekchanovna</i>	
JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING O'R NATISH	617-622
<i>Atoyeva Gulshoda Rabimovna</i>	
OILADAGI ZO' RAVONLIKNING O'SMIR XULQIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI	623-628
<i>Musinova Ruxshona Yunusovna, Qurbanova Aziza Davlat qizi</i>	
JABRLANUVCHI SINDROMI, UNING ASOSIY SABABLARI VA BELGILARI	629-635
<i>Jamolova Mokhigul Bakhtiyorovna</i>	
METHODS OF DEVELOPING THE CRITICAL THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS THROUGH FAIRY TALES	636-641

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich,
SamDChTI, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha
birinchi prorektori, falsafa fanlari doktori, professor

JAMIYATDA ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarning estetik madaniyatda aks etishi bilan bog'liq falsafiy qarashlar tadqiqot ob'ekti sifatida tahlil etilgan. Unda har bir shaxsning falsafiy dunyoqarashini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan xalqimizning milliy urf-odatlari, an'ana va qadriyatlari ijtimoiy hayotda ifodalanishi ochib berilgan. Jamiyatning spiralsimon harakatidagi jarayonlarda estetik madaniyatning davrlar oralig'iда o'z qiyofasini yangilab va boyitib borishi masalalari falsafiy tarzda o'zining ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, madaniyat, estetik madaniyat, ma'naviyat, falsafiy dunyoqarash, inson, milliy qadriyat, ijtimoiy taraqqiyot, ehtiyoj, tafakkur, estetik qadriyatlar.

Gayullaev Otabek Muhammadiyevich,
SamSIFL, On youth issues and spiritual and educational affairs
first vice-rector, doctor of philosophy, professor

PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF AESTHETIC CULTURE IN SOCIETY

Abstract. In this article, the philosophical views related to the reflection of the changes in society in the process of building a new Uzbekistan in the aesthetic culture are analyzed as an object of research. It reveals the expression of the national customs, traditions and values of our people in social life, which are important in the development of the philosophical outlook of each person. In the processes of the spiral movement of society, the issues of aesthetic culture renewing and enriching its image between periods have been philosophically expressed.

Key words: society, culture, aesthetic culture, spirituality, philosophical outlook, human, national value, social development, need, thinking, aesthetic values.

Гайбулаев Отабек Мухаммадиевич,
СамГИИЯ, По вопросам молодежи и духовно-просветительским делам
первый проректор, доктор философских наук, профессор

ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. В данной статье в качестве объекта исследования анализируются философские взгляды, связанные с отражением изменений в обществе в процессе строительства нового Узбекистана в эстетической культуре. В нем раскрывается выражение национальных обычаяев, традиций и ценностей нашего народа в общественной жизни, имеющих важное значение в развитии философского мировоззрения каждого человека. В процессах спирального движения общества философски выражались вопросы эстетической культуры, обновляющей и обогащающей свой образ между периодами.

Ключевые слова: общество, культура, эстетическая культура, духовность, философское мировоззрение, человек, национальная ценность, общественное развитие, потребность, мышление, эстетические ценности.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N23>

Insoniyat tarixining rivojlanishi jarayonida ko'plab ma'naviyat durdonalari vujudga kelishi bevosita estetik madaniyat namunalari bilan bog'liq bo'lib, ular o'sib kelayotgan yosh avlodning ijtimoiy turmush tarziga bevosita ta'sir etmay qolmaydi. Bunday ko'rinishdagi an'ana va marosimlar davrlar oralig'ida o'zining qiyofasini jamiyatdagi falsafiy qarashlar asosida boyitib boradi. Shular asosida har bir insonning estetik madaniyati "ma'naviy-madaniy hayot, ta'lim tarbiya, madaniy meros, tarixiy tajriba, diniy, axloqiy, ma'rifiy qarashlar, turmush tarzi, rang-barang munosabatlar, ilm-fan, xalq bayramlari, sayllari, tomoshalari va udumlari, san'at, adabiyot kabi sohalarni o'z ichiga qamrab oladi"[1]. Bu estetik madaniyatning jozibador va betakror makonlari rivoji jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning mahsuli bo'lib, unda har bir shaxs uchun naqadar aziz hisoblangan milliy-madaniy qadriyatlar o'zining umuminsoniy va insonparvarligi bilan yangi O'zbekistonning ma'naviy olamini namoyish etishga xizmat qilmoqda. Buning natijasida jamiyatda amalga oshirilayotgan milliy demokratik o'zgarishlar esa xalqning an'analarini, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan qadriyatlarini qo'llab-quvvatlaydi, ularni milliy-madaniy boylik sifatida asrashga, ulardan yangi avlodni shakllantirishda unumli foydalanishga da'vat etadi. Qaysi mamlakatda, qanday ijtimoiy makonda ro'yobga chiqmasin, tom ma'nodagi demokratiya modernizatsiya bayrog'i ostida an'anaviy qadriyatlarni rad etolmaydi, tadrijiylikka tayanmagan o'zgarishlar xalq turmush tarzi, qalbidan joy olmaydi.

Jamiyatimizda insonning har tomonlama kamol topishi uchun avvalambor, tarixan shakllanib kelgan diniy va dunyoviy bilimlarning asosini tashkil etuvchi an'analar, milliy qadriyatlar, udum va marosimlarga alohida e'tiborni qaratishimiz darkor. Bu esa, har bir insonni jamiyatdagi obyektiv va subyektiv omillarga tayanishini taqozo etib keladi. Bu omillar hamisha shuni talab etadiki, "azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan odob-axloq qoidalaringin butunlay yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, ma'naviyat va ma'rifikatga, axloqiy tarbiya, ning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish g'oyat birlamchi vazifamizdir"[2]. Jamiyatda milliy qadriyatlarning rivojlanib borishi bevosita o'ziga xos milliy dunyoqarash va estetik madaniyatning yuksalishiga xizmat qiladi.

Jamiyatda estetik madaniyatining falsafiy asoslarini tahlil qilganda, uning tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan aloqadorlik jihatlariga e'tiborni qaratish, xalq tafakkurida aks etgan ma'naviyat dunyosi qanday bo'lganligini o'rganish, tarixiy shart-sharoitni hisobga olish kerak bo'ladi. Ayni paytda har bir shaxsning o'zligini anglab yetgan, estetik madaniyat sohasidagi o'zgarishlarni yuksak ma'naviyat bilan tushunadigan davrni yaratish jamiyatning vazifasiga aylandi. Bu yangi O'zbekistonning porloq istiqboli uchun qaratilgan uzlusiz dastur va qonunlarning yaratilishini, ijtimoiy hayotdagi islohotlarning izchilligini talab etib, ayni paytda jamiyatda barcha sohalarda bosqichma-bosqich amalga oshirib borilmoqda.

Jamiyatimizda sodir bo'layoutgan estetik madaniyatning yangicha qiyofasi islohotlarning inson qadriga xizmat qilishini, demokratik tamoyillarning boy va teran bo'lib borishi ma'naviy dunyoning maqsadi yuksak ma'naviyatli inson ekanligini ko'rsatmoqda. Bu faoliyatning tag-

tomiri estetik madaniyat durdonalari bilan boyitilgan holda insonning ma'naviy olamiga singib ketishi uni go'zallik shaydosiga aylantirishi kerak. Bugungi kunda estetik madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida "boy va betakror axloqiy-ruhiy, ma'naviy-estetik oltin meros odatlar, rasm-rusumlar, an'analardan ishonchliroq manba yo'q"[3]. Chunki, bularning barcha asrlar davomida o'zining ishonchli va estetik jihatdan ko'r kamligi, shaxs estetik qarashlariga serjilo fayz kiritib kelishi bilan hamisha o'z qadr-qimmatini oshirib kelgan. Biz yangi jamiyatning vorislari sifatida doimo bundan yuksak estetik tafakkurning durdonalarini asrab-avaylashimiz, ularning kelajak avlodlarga o'z holicha yetkazib berishimiz, ajdodlarimiz tomonidan yaratib qoldirilgan estetik madaniyatning nodir qo'lyozmalarini va asarlarini butun dunyoga tanitishimiz, o'tmishimizning naqadar boy va jozibador, ilm va madaniyat sohasida doimo ilgarilab yurganliklarini namoyish etib borishimiz lozim.

Falsafiy tafakkur rivoji har bir davr uchun o'ziga xos va o'ziga mos zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalab, yangicha ijtimoiy muhit asosida jamiyat rivojiga turki beruvchi shaxslarni voyaga yetkazib boradi. Bu jarayonda xalqning istiqbolini yuqori cho'qqiga olib chiquvchi falsafiy dunyoqarash tizimida estetik madaniyatning roli kuchli bo'lib, millat taqdiri, Vatan ravnaq, yurt tinchligi, xalq farovonligi yo'lida o'zgacha qiyofa kasb etuvchi milliy mafkura shakllanib boradi. Uning harakatlantiruvchi kuchi sifatida shaxs va davlat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, voqelikka nisbatan estetik nuqtai nazardan yondashish, insonlarni estetik madaniyat sari chorlash asosiy rol o'ynashi lozim.

Yangi O'zbekistonda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining dastlabki kunlaridan boshlaboq milliylikni shakllantirish, milliy qadriyatlarni qayta tiklash masalasi ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zining yorqin ifodasini topa boshladi. Shunday bir sharoitda har bir jamiyatda insonning milliy tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan, shaxs va jamiyat uchun xizmat qiladigan, xalqning taqdirini yuksak estetik madaniyat darajasiga ko'taradigan falsafiy dunyoqarashga ehtiyoj sezildi. Natijada jamiyat ravnaqi va xalqning azaliy orzu-umidlarini o'zida ifodalagan, shaxs estetik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan estetik madaniyatning vujudga kelishi muhim ahamiyatga ega bo'lishiga olib keldi.

Yangi O'zbekistonda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatida inson manfaatlarini ustun qo'yish, davlatning islohotlar jarayonidagi faoliyatini inson qadri yo'lida tobora mustahkamlab borish dolzarb hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyot qonunlariga, ko'ra "shaxsning g'oya va mafkura hamda madaniyati jamiyatda hal qiluvchi ahamiyatga ega"[4]. Mana shu faoliyatda jamiyatning yuksak didli fuqarolarga ehtiyoji kuchayib boradi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning harakatlantiruvchi kuchiga aylanayotgan insonlarni ezgu maqsadlar sari yo'naltirib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarda muayyan g'oya yoki mafkuraning kuchli shakllanishini talab etadi. Natijada xalqning turmush tarzini aks ettiruvchi, sog'lom fikrli shaxs yoxud insonni tarbiyalovchi muayyan qarashlar va fikrlar yig'indisidan iborat falsafiy dunyoqarash vujudga keladi. Bu jarayon insonlarni estetik ideallar negizida yuksak marralar sari chorlab, doimo ma'naviy-ruhiy jarayonlarga kuch-quvvat bo'luvchi vazifani bajaradi.

Estetik madaniyatning asosiy falsafiy ildizlarini jahon falsafasidagi umuminsoniy qadriyatlari, Sharq falsafasi va yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarimizning falsafiy qarashlari tashkil qiladi. Har bir shaxs va millatning ming-ming yillar davomida insonlar dunyoqarashida shakllanib, ajdoddalaridan avlodlarga o'tib borgan moddiy va ma'naviy merosi o'zida estetik madaniyatni namoyon etib kelgan.

Jamiyatda insonning erkin yashashi va rivojlanishi uchun ijtimoiy muhit yaratish bilan birga estetik madaniyatning milliy o'ziga xos tomonlarini ro'yobga chiqarish imkoniyati yangi O'zbekistonda kengaydi. Natijada xalqimiz qalbiga yaqin qadriyatlarga bo'lgan munosabat o'zgartirib, tarixiy ma'naviy-estetik qadriyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ijtimoiy hayotda insonning estetik ongi muttasil o'sib borishi, buyuk ajdodlarining merosini mukammal o'rganish, ular nomlarini keng ko'lamda o'rganish zaruriyati paydo bo'ldi. Zero, yangi O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-estetik poydevorini barqaror qilish har bir shaxsning mehnatsevarligi, ma'naviy barkamolligi, estetik madaniyatining rivojlanishi, huquqiy ongingin yuksalishi, o'zga kuchlarga qaram bo'lmasligi bilan uzviy bog'liqidir. Bu jamiyatda estetik madaniyat yuksalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yangi O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishda "Taraqqiyot strategiyasi"ning iqtisodiy, ijtimoiy, badiiy-estetik jarayonlarga ta'siri katta bo'lib, odamlar ongi va tafakkurining o'zgarishi, yangilanishi va rivojlanishiga olib keldi. Bu nafaqat shaxs estetik madaniyatining milliy va umuminsoniy xususiyatlarini, mamlakat ijtimoiy-tarixiy tajribasi, shuningdek, badiiy ijodiyot va voqelikka estetik munosabatning ijtimoiy amaliyotini o'zida ifodalagan yangi va zamonaviy islohot bo'ldi.

XXI asrda insoniyat shunday davrga yetib keldiki, har qanday milliy mahdudlik uning ma'naviy hayotiga qanchalik zarar keltirsa, har qanday, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va e'tibor shunchalik milliy-ma'naviy yuksalishga xizmat qiladi. Bugungi kunga kelib bu narsa ba'zi shaxslar faoliyatida o'zining xavfli jihatlarini namoyon etishga olib kelmoqda. Shunday shaxslarning g'arazli niyatları ostida "millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin"[5]. Bu esa, xalqimizni turli xavf-xatarlardan himoya qiluvchi qobiq sifatida shaxsning ijtimoiy ehtiyoj va imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Xalqimiz boshqa xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan moddiy-ma'naviy boyliklarni bevosita idrok etish, fan, texnika va madaniyat sohasidagi yangiliklarni bilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu erkinlik, o'z navbatida, yangicha estetik madaniyat shakllanishi va rivojlanishiga ham olib keldi. Estetik madaniyat o'z tabiatini bilan odamlarni butun insoniyat e'zozlaydigan, butun insoniyat uchun aziz va zarur bo'lgan estetik qadriyatlarni tufayli ravnaq topar ekan, bugun ana shunday ijtimoiy muhit va tarixiy sharoit yaratdi.

Yangicha estetik madaniyat shakllanishi va rivojlanishida asosiy ijtimoiy-falsafiy masalalardan biri xalqning ma'naviy merosiga bo'lgan munosabat, uni mustahkamlash va rivojlantirish bo'ldi. "Bu masala juda katta ijtimoiy-tarixiy, mafkuraviy-falsafiy muammo edi. Chunki ma'naviyat masalalarini to'g'ri hal qilmay turib, xalqni tarixga va zamonaviy hayotga bo'lgan to'g'ri munosabatlarini shakllantirmay turib zamonaviy hayotga erishib bo'lmaydi"[6]. Chunki ma'naviyat haqida gap ketganda madaniy merosimiz, an'ana va rasm-rusumlarimiz, diniy qadriyatlarmiz, til va adabiyot, san'at hamda tarixiy xotiralar nazarda tutilar ekan, ana shu sanab o'tilgan ijtimoiy hodisalarining barchasi estetik madaniyatning shakl va mazmunini tashkil etuvchi asosiy jihatlar hisoblanadi.

Estetik madaniyatni milliy til va uning muammolari, tarixiy xotira va rasm-rusumlar, jonajon o'lka go'zalligi-yu axloqiy qadriyatlari va hokazo obyektiv va subyektiv omillarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Estetik madaniyat qanchalik keng va turli-tuman obyektiv va subyektiv omillarni o'z ichiga olganday, estetik qadriyatlarni ham shunchalik keng va bepoyon tushuncha, olamdir. Estetik qadriyatlarni tushunchasini tashkil etuvchi barcha narsa va hodisalar estetik

madaniyat mazmuni va mohiyatini ham tashkil etadi. Bu estetik qadriyatlarni tashkil etuvchi tarkibiy omillarni chuqur o'ylaydigan bo'lsak, bu omillarning barchasi qanchalik estetik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda ham asosiy omil vazifasini o'tashiga ishonch hosil qilamiz.

Shaxsning umri o'z qavmi, xalqi, millati va mamlakati muhitida o'tar ekan, uning odamlar bilan bo'ladigan munosabat va muloqoti ona tili orqali sodir bo'lar ekan, shaxs ma'naviyatidan tarixiy xotira, rasm-rusum va diniy qadriyatlarni o'rinni olar ekan, inson bolasi o'z ota-onasi, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar bilan aloqador va bog'liq ekan, bunday ijtimoiy munosabatlar sadoqat, hurmat, ishonch, vijdon va erkinlik singari tasavvur va tuyg'ular bilan muhrlanan ekan, bularning barchasi estetik madaniyatni ham oziqlantiruvchi va ifodalovchi ijtimoiy omillar hisoblanadi.

Ana shunday milliy, umuminsoniy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish pirovard natijada ma'naviy kamolotni, xususan, estetik madaniyat taraqqiyotini ifoda etadi. Estetik tafakkur rivoji o'z navbatida boshqa xalqlar va mamlakatlar madaniyati va ma'naviyatini hurmat qilish hamda qadriga yetish hissiyotini ham tarbiyalaydi. Estetik madaniyat xalqlar ma'naviyatidagi umuminsoniy mushtarak jihatlarni e'zozlash, ulardan zavq olish va boshqa xalqlar uchun ham ahamiyatini ko'rsatish vositasi sifatida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Ma'naviyat, xususan, estetik madaniyat va estetik tafakkur taqdir ehsoni emas. U aqliy va jismoniy mehnat orqali, millatni tarixan shakllangan va zamonaviy tarbiya tizimi, ma'rifat hamda hayotga pok vijdon va sadoqat bilan munosabatda bo'lish orqali shakllanadi, rivojlanadi.

Shaxsda estetik madaniyat tarbiyasining natijasi shundan iboratki, insonda o'z kuch-qudratiga ishonch hosil bo'ladi, inson o'z qilayotgan ishi, bajarayotgan hunaridan mamnun bo'ladi, shaxs qiyofasida barqarorlik vujudga keladi. Estetik madaniyati yuksak bo'lgan shaxs o'tkinchi kayf-u safoga berilmaydi, yengil yo'l orqali turmushini qurishga intilmaydi, buzg'unchi g'oyalarga ergashmaydi. Chunki estetik madaniyat o'z ijtimoiy mohiyati bilan shaxslarni, insoniyatni go'zallik va ijodkorlik olamida birlashishga chaqiruvchi nafis tuyg'uli idrok ifodasidir.

Estetik madaniyat birinchi navbatda shaxsning emotsional dunyosi, tashqi va ichki ta'sir hamda taassurotlarga bog'liq bo'lgani uchun bu obyektiv va subyektiv omillar yo'naliшining aniq tizimini ishlab chiqish ham zarur ijtimoiy vazifadir. Ana shu milliy o'ziga xoslik bu mamlakat, bu millatning jahon xalqlari orasidagi o'rni va mavqeyini belgilashda juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Keyingi yillarda har bir shaxsni ona-Vatanga muhabbat, ajdodlarimiz merosiga, mustaqillik g'oyalalariga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun insonning ko'zi tushadigan, hayoti kechadigan maskanlarni, o'quv va mehnat sharoitlarini qaytadan o'zgartirilib, yangicha estetik madaniyatni shakllantirish uchun avvalo yangicha ijtimoiy-estetik muhitni barpo etilmoqda. Bu estetik faoliyat nafaqat ta'limda, balki xalqimizning asosiy qismini tashkil etadigan qishloqlarimizda ham o'zining yaxshi samarasini bermoqda. Chunki bu estetik madaniyatning yuksak namunasini bizga ajdodlarimiz meros qilib qoldirgan[7].

Ana shunday his-tuyg'ular estetik kechinmalar, estetik madaniyat, estetik tafakkur xususiyatlarini o'zida ifoda etadi. Estetik kechinma bunyodkorlik, go'zallik va insoniylik ruhi bilan sug'orilar ekan, uning natijasi o'larroq inson mehnati natijalarining ijtimoiy ahamiyati ham shunchalik yuqori bo'ladi. Shunday ekan, yangi O'zbekistonning tobora go'zallahib borayotgan

tabiatи va odamlar hayotidagi o'zgarishlarni birinchi bo'lib qabul qiladigan va bu o'zgarishlarga o'zlarini mas'ul his qiladigan shaxslar bilan bog'lash lozim.

Bugun jamiyatda ana shunday fazilatlarni ro'yobga chiqarish va tarbiyalash shart-sharoitlari vujudga keldi. Insonlarni milliy ruhda tarbiyalashda shaxs, oila va jamiyat manfaatlari hamda vazifalarida mushtaraklik paydo bo'ldi. Ayni chog'da ota-onalar va jamiyat zimmasiga juda katta vazifalar va mas'uliyat yuklandi. Tafakkuri keng, inson va insoniyat haqida chuqur ma'lumotli va ma'rifatli shaxsgina o'z millati va mamlakatining taqdiri va ravnaqi yo'lida butun aqliy va ruhiy imkoniyatlarini safarbar etishi, o'z xalqi va mamlakatini har bir yutug'idan zavq-shavqqa to'lib, taraqqiyot uchun xalal berayotgan nuqson va xatolardan iztirob chekishi mumkin. Bunday kechinmalar yig'indisi esa yangicha estetik madaniyat, tafakkur va dunyoqarash natijasi sifatida ijtimoiylashib boradi.

Jamiyatda keyingi ijtimoiy-ma'naviy islohotlar markazida barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi umummiliy, umum davlat miqyosidagi vazifaga aylandi. Mamlakatimiz istiqboli, erkin va farovon hayot yaratish masalasi, O'zbekistonning XXI asrdagi jahon hamjamiyatida tutadigan o'rni va mavqeyi yosh avlodning qanday inson bo'lib shakllanishiga bog'liq. Ular to'g'ri tarbiyalansa, ularning yangi tafakkuri, ruhiy dunyosiga nechog'lik milliy va umumbashariy qadriyatlar chuqur singdirilsa, estetik madaniyatga doir barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlari o'z vaqtida inobatga olinsa davlatimiz va mamlakatimizning intellektual salohiyati shunchalik kuchaygan bo'ladi. Har bir shaxsning o'z tabiatiga ko'ra har narsaga qiziquvchan, yaxshi-yomonga ergashuvchan va turli ta'sirlarga beriluvchan bo'lishini inobatga olgan holda uning yoshi, qiziqish doirasi va qobiliyatlarini hisobga olish ijobiy natija beradi.

Umuman olganda, estetik madaniyat insonning axloqiy, diniy, huquqiy, ilmiy, badiiy va amaliy ehtiyoj, orzu, intilishlaridan chekkada sof bir ma'naviy hosila sifatida qaror topmaydi. Estetik madaniyat shaxs ongi va qalbining barcha tomonlarining umumiyy va mushtarak ifodasi sifatida gavdalanadi. Demak, shaxsni ezgu maqsadlar yo'lida jamiyat a'zolari bilan birlashtirish va ijtimoiy muhitda sog'lom turmush talablari yashashga intilish o'z mohiyati bilan estetik madaniyat shakllanishi hamda rivojlanishiga ham jiddiy munosabatda bo'lishni taqozo etib boraveradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-хуқуқий асослари. –Тошкент: "Ўзбекистон", 2007. 119-бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: O'zbekiston, 2021. 276-бет.
3. Муродов М. Ёш авлод тарбиясида миллий қадриятларнинг педагогик имкониятлари // "Миллий урф-одат, маросим ва анъаналарнинг шахс маънавий камолотидаги ҳрни" мазуида 1998 йил 3- ноябрда ўтказилган семинар-йигилиш материаллари. - Тошкент: 1998. 16-бет.
4. Норматов К., Файзиев С. Ёшларни миллий ғоя ва мафкура руҳида тарбиялаш ва терроризмга қарши курашнинг айrim масалалари. // Миллий ғоя ва мафкурунинг фалсафий-хуқуқий фанлар ривожидаги аҳамияти. -Т.: 2008, Фалсафа ва хуқуқ нашриёти. - Б.77.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008. 11-бет.
6. Гайбуллаев О. М. проблемы эстетической культуры личности в условиях глобализации //Философия в современном мире. – 2017. – С. 295.
7. Gaynullaev O. Spiritual maturity and aesthetic culture //T.: CHASHMA PRINT. – 2008. P. 38.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 3 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масьулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).